

## VII. ISTE'MOL BOZORI


### CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiyl ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidandir.

2023- yil 1- aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 8 453 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 12 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 8 441 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan.

#### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lмаган miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd so‘m**  
**(2023- yil yanvar-mart oylari)**

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 4 098,0 mlrd so‘mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2,2 % ga o‘sdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 319,2 mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati 110,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 778,8 mlrd so‘mni (o‘sish sur’ati 1,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 607,6 mlrd so‘mni (o‘sish sur’ati 92,7 %) tashkil etdi.

**Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining hajmi va o‘sish sur’atlari**

	Jami mlrd so‘m	2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd so‘m	2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd so‘m	2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>4 098,0</b>	<b>102,2</b>	<b>319,2</b>	<b>110,6</b>	<b>3 778,8</b>	<b>101,5</b>
Andijon sh.	1 397,6	105,3	222,3	130,2	1 175,4	101,6
Xonobod sh.	51,5	100,6	2,0	90,3	49,5	101,0
<i>tumanlar :</i>						
Oltinko‘l	112,0	100,6	2,8	64,9	109,3	102,1
Andijon	243,3	100,5	19,2	48,9	224,0	110,5
Baliqchi	199,0	100,4	13,2	132,2	185,8	98,7
Bo‘ston	76,9	100,1	3,2	79,4	73,7	101,2
Buloqboshi	146,8	100,4	2,0	55,7	144,8	101,6
Jalaquduq	139,7	100,5	11,4	282,4	128,3	95,1
Izboskan	153,3	100,4	3,7	169,9	149,6	99,4
Ulug‘nor	61,7	100,8	0,5	62,5	61,2	101,4
Qo‘rg‘ontepa	245,1	100,4	3,3	50,0	241,9	101,8
Asaka	270,7	102,2	13,0	80,0	257,7	103,7
Marhamat	200,4	100,5	4,4	83,2	196,0	101,0
Shahrixon	452,5	100,3	7,6	99,2	444,9	100,3
Paxtaobod	201,9	100,8	5,5	76,9	196,4	101,7
Xo‘jaobod	145,7	100,5	5,2	114,6	140,5	100,1

2023- yilning yanvar-mart oylarida 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan viloyatning Andijon shahri (5,3 %), Asaka (2,2 %), Paxtaobod, Ulug‘nor (0,8 %) va Oltinko‘l (0,6 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o‘sish sur’atlari qayd etildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022 - yilning mos davriga nisbatan 10,6 % ga o'sdi va 319,2 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 7,8 % ulushiga to'g'ri keldi.

### *Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da*

#### *Yirik korxonalar*

**Andijon sh.**

**69,6**

**Andijon**

**6,0**

**Asaka**

**4,1**

#### *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik*

**Andijon sh.**

**31,1**

**Shahrixon**

**11,8**

**Asaka**

**6,8**

### *Eng past ulushga ega hududlar, % da*

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 3 778,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 1,5 % ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 92,2 % ni tashkil etdi.

#### *Yirik korxonalar*

**Ulug'nor**

**0,2**

**Xonobod sh.**

**0,6**

**Buloqboshi**

**0,6**

#### *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik*

**Xonobod sh.**

**1,3**

**Ulug'nor**

**1,6**


**Bo'ston**

**2,0**



## **Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining hududlar kesimida ulushi, foizda**

Tahliliy natijalarga ko‘ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo‘yicha Ulug‘nor (99,1 %), Qo‘rg‘ontepa (98,7 %), Buloqboshi (98,6 %), Shahrixon (98,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahrida (15,9 %), Jalaquduq (8,2 %), Andijon (7,9 %), tumanlarida kuzatildi.



**Yirik korxonalar**

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari**

**Andijon viloyati bo'yicha aholi jon boshiga nisbatan chakana savdo tovar  
aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari**

2023- yilning yanvar-mart oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1 230,5 ming so'mni (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 100,0 % ga teng) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida ma'lumot**

	Hajm, ming so'm	2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
<b>Andijon viloyati</b>	<b>1 230,5</b>	<b>100,0</b>
Andijon shahar	2 978,1	103,1
Xonobod shahar	1 141,4	98,4
<i>tumanlar:</i>		
Oltinko'l	591,3	98,3
Andijon	866,6	98,3
Baliqchi	939,5	98,4
Bo'ston	1 006,9	98,1
Buloqboshi	977,4	98,5
Jalaquduq	714,3	98,6
Izboskan	611,0	98,4
Ulug'nor	978,3	98,9
Qo'rg'ontep'a	1 082,2	98,7
Asaka	777,1	100,0
Marhamat	1 095,5	98,5
Shahrixon	1 423,3	98,0
Paxtaobod	986,2	98,7
Xo'jaobod	1 239,9	98,0


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Andijon shahri (2 978,1 ming so'm), Shahrixon (1 423,3 ming so'm) va Xo'jaobod (1 239,9 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

## Uyushmagan savdo tovar aylanmasi\*


**Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda**



**Asosiy tarkib, foizda**



Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-mart oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 607,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 100,9 % ga oshdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 244,1 mlrd so'mni (o'zgarish sur'ati 363,5 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 607,6 mlrd so'mni (o'zgarish sur'ati 100,9 %) tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shмаган holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

**Uyushmagan savdo aylanmasida dehqon va chorva bozorlari savdo  
aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari**

	<b>Jami, mlrd so 'm</b>	<b>2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda</b>	<b>Dehqon bozorlari, mlrd so 'm</b>	<b>2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda</b>	<b>Chorva (parranda) bozorlari, mlrd so 'm</b>	<b>2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda</b>
<b>Andijon viloyati</b>	<b>607,6</b>	<b>100,9</b>	<b>244,1</b>	<b>124,4</b>	<b>363,5</b>	<b>102,9</b>
Andijon sh.	138,0	110,7	77,9	145,3	60,1	84,6
Xonobod sh.	1,0	72,3	1,0	72,3	-	-
tumanlar:						
Oltinko'l	11,5	149,4	5,6	174,7	5,9	131,4
Andijon	21,1	105,0	21,1	105,0	-	-
Baliqchi	33,7	84,2	8,7	225,4	24,9	69,0
Bo'ston	5,8	143,0	2,0	115,2	3,8	163,0
Buloqboshi	20,5	104,4	3,7	82,8	16,8	110,8
Jalaquduq	15,1	124,6	3,1	111,7	12,0	128,3
Izboskan	4,7	84,8	1,4	102,3	3,3	79,0
Ulug'nor	22,4	105,9	0,5	57,8	21,8	108,0
Qo'rg'ontep'a	17,0	115,0	8,4	114,9	8,6	115,0
Asaka	68,4	117,3	28,0	115,5	40,3	118,6
Marhamat	32,5	73,7	12,4	87,1	20,1	67,3
Shahrixon	126,6	94,1	46,5	151,8	80,1	77,1
Paxtaobod	60,3	109,0	20,4	106,0	39,9	110,6
Xo'jaobod	29,1	75,3	3,3	46,3	25,8	81,9

2023- yilning yanvar-mart oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 244,1 mlrd so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 363,5 mlrd so'mni tashkil etdi.

## Uyushmagan savdo tovar aylanmasi: Dehqon bozori

2023- yilning yanvar-mart oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 244,1 mlrd so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (80,6 mlrd so‘m) to‘g‘ri keldi.

<b>Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari</b>	<b>Mlrd so‘m</b>
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari</b> 80,6
	<b>Non va non mahsulotlari</b> 71,9
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 33,7
	<b>Tovuq go‘shti</b> 10,8
	<b>Ouritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari</b> (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 10,9
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza....) 6,8
	<b>Tuxum</b> 7,4
	<b>Chorya mollari va parrandalari uchun har xil yem-xashak</b> 1,3
	<b>Ziravorlar</b> 11,0
	<b>Tuzlamalar</b> 7,0
	<b>Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari</b> (manzarali va qishloq xo‘jaligi) 1,3
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b> 1,4

**Uyushmagan savdo tovar aylanmasi:  
Chorva (parranda) bozorlari, mlrd so‘m**

2023- yilning yanvar-mart oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 363,5 mlrd so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi 305,9 mlrd so‘m, qo‘y va echkilar - 50,1 mlrd so‘mni, otlar - 3,2 mlrd so‘mni, parrandalar - 2,9 mlrd so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	Mlrd so‘m
 2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	183,0
 1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	64,4
 1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar	58,5
 Qo‘ylar	50,1
 Otlar	3,2
 Echkilar	1,4
 Kurka, o‘rdak, g‘oz	1,8
 Tovuqlar	0,8
 Quyonlar	0,2
 Qushlar	0,1

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI


### Savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining hajmi va o'sish sur'atlari

	Jami, mlrd so'm	2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar , mlrd so'm	2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorli k, mlrd so'm	2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>79,7</b>	<b>105,6</b>	<b>6,6</b>	-	<b>73,1</b>	<b>96,9</b>
Andijon sh.	40,6	114,4	6,6	-	34,1	95,9
Xonobod sh.	1,2	95,2	-		1,2	95,2
tumanlar:						
Oltinko'l	2,2	93,0	-	-	2,2	93,0
Andijon	3,5	99,3	-	-	3,5	99,3
Baliqchi	3,1	100,0	-	-	3,1	100,0
Bo'ston	1,0	93,4	-	-	1,0	93,4
Buloqboshi	1,1	101,1	-	-	1,1	101,1
Jalaquduq	1,7	100,3	-	-	1,7	100,3
Izboskan	2,4	98,7	-	-	2,4	98,7
Ulug'nor	0,9	93,9	-	-	0,9	93,9
Qo'rg'ontepə	2,2	97,2	-	-	2,2	97,2
Asaka	4,8	96,9	-	-	4,8	96,9
Marhamat	2,4	105,3	-	-	2,4	105,3
Shahrixon	7,0	96,2	-	-	7,0	96,2
Paxtaobod	2,2	103,3	-	-	2,2	103,3
Xo'jaobod	3,4	95,1	-	-	3,4	95,1


2023- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,0 % ulushni tashkil etib, 79,7 mlrd so'mga yetdi va 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 5,6 % ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining 91,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-mart oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 919,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 2,5 % ga o'sdi.



2023- yil 1- aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 3 220 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 10 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 3 210 tani tashkil qildi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 815,6 mlrd so'mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 98,0 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 88,7 % ni tashkil qildi.

**Ulgurji savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes  
subyektlarining hajmi va o'sish sur`atlari**

	<b>Jami, mlrd so'm</b>	<b>2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda</b>	<b>Yirik korxonalar, mlrd so'm</b>	<b>2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda</b>	<b>Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd so'm</b>	<b>2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda</b>
<b>Andijon viloyati</b>	<b>919,1</b>	<b>102,5</b>	<b>103,5</b>	<b>158,6</b>	<b>815,6</b>	<b>98,0</b>
Andijon sh.	432,7	112,2	87,8	180,9	344,9	102,3
Xonobod sh.	5,7	79,8	0,01	2,4	5,7	82,2
tumanlar:						
Oltinko'l	33,4	95,7	0,04	47,3	33,3	95,9
Andijon	51,4	72	4,84	31,1	46,6	83,3
Baliqchi	46,5	101,2	0,10	85,9	46,4	101,2
Bo'ston	21,0	58,6	0,04	67,9	21,0	58,5
Buloqboshi	13,6	115,4	-	-	13,6	115,4
Jalaquduq	15,4	136,1	5,86	85,9 m.	9,5	84,8
Izboskan	16,6	98,1	0,04	50,8	16,6	98,3
Ulug'nor	5,3	109	0,01	28,6	5,3	109,8
Qo'rg'ontep'a	11,9	101,4	-	-	11,9	101,4
Asaka	44,5	96,5	-	13,4	44,5	96,6
Marhamat	7,8	3,2 m.	4,74	22,2 m.	3,1	138,8
Shahrixon	187,7	101,0	0,01	12,1	187,7	101,1
Paxtaobod	17,1	83,3	0,03	29,6	17,1	83,6
Xo'jaobod	8,4	185,1	0,02	21,1	8,4	188,8

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Marhamat (22,2 m.), Jalaquduq (85,9 m.) tumanlarida va Andijon shaharda (180,9 %) kuzatildi.

## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Chakana savdo** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya'ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste'mol sohasiga o'tgan vaqtdagi harakatining yakuniy bosqichini ifodalaydi.

**Chakana tovar aylanmasi** – tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat'i nazar, aholiga iste'mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochkalari, kredit kartochkalari, banklarning hisob cheklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

**Umumi ovqatlanish** – yuridik shaxslar tomonidan pazandachilik mahsulotlarini tayyorlashga, sotishga va iste'molini tashkil qilishga ixtisoslashtirilgan faoliyatni amalga oshirish.

**Umumovqatlanish aylanmasi** – joyida aholiga iste'mol uchun, shuningdek, turli kontingentdagi aholini ovqatlanishini tashkil qilish uchun tashkilot va yakka tadbirkorlarga o'zi ishlab chiqargan kulinariya mahsulotlarini (taom, kulinariya mahsulotlari va yarimfabrikatlar), shuningdek, kulinariya ishlovisiz sotib olingan tovarlarni (unli, qandolatli va non mahsulotlari) sotishdan tushgan tushumni ifodalaydi.

**Tovar zaxiralari** – chakana savdo korxonalari balansida turgan va kelgusida sotish uchun mo'ljallangan tovarlar qoldig'i.

**Tovar aylanmasining tovar tuzilmasi** – umumi savdoda nisbiy ko'rsatkich – jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og'irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumi tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o'rtasidagi nisbat, ya'ni tovar aylanmasi tarkibi.

**Ulgurji savdo** – tijorat maqsadlarida yoki o'zining ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlariga foydalanish uchun, xarid qilingan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo'yicha sotish.

**Iste'mol tovarlari** – yakuniy iste'molga (oilaviy yoki shaxsiy) qaratilgan, bevosita inson ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar.

**Texnik-ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar** – ishlab chiqarish iste'moli uchun mo'ljallangan mahsulot: xomashyo, materiallar, yoqilg'i, butlovchi instrumentlar, mashinalar, ehtirot qismlar, yarimfabrikatlar va boshqalarini o'z ichiga oladi.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – tuzilgan shartnomalar bo'yicha tijorat maqsadlarida (keljakda qayta ishslash yoki sotish) yoki o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob shaklida tovarlar sotishdan tushumni ifodalaydi.